



ANATOMIYA FANIDA INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH AFZALLIGI

Bekberganova Ozoda Xikmatullayevna UrDU magistranti

Ahmedova Shoxista Mo‘min qizi UrDU magistranti

Assesment metodi-Assesment ingliz tilidagi “assessment” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘z-o‘zini taqdimot qilish, ma‘lum bir sinovdan o‘tish ma‘nolarini anglatadi. “Assesment”lardan ma‘ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma‘lumotlarni bayon qilishda, mavzu yoki ma‘lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Ushbu metod dars jarayonining tashkiliy shakllaridan biri bo‘lgan talabalar bilan yakka tartibda ishlash turidagina qo‘llanadi. Shuningdek, Assesment metodi orqali fanning ma‘lum bir bo‘limi tamomlanganda, joriy nazorat topshirish jarayonida hamda talabalarning qayta o‘zlashtirish jarayonida samarali foydalanish mumkin. Bu esa talabalarning fan bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimi, ko‘nikmasi va malakasini to‘liq namoyon etishiga imkoniyat yaratadi. Qolaversa, ushbu metod o‘qituvchi uchun talabaning muayyan bir mavzu (mavzuning biror rejasi) yoki fanning ma‘lum bir qismi (bob, bo‘lim) bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniq baholash imkonini beradi.

Metodni qo‘llash jarayonida talabalar uchun mavzuga doir muammolarni o‘z ichiga olgan va ketma-ket keluvchi, jadval shaklidagi topshiriq beriladi. Assesment metodida jadval ko‘rinishidagi topshiriq albatta to‘rt qismdan iborat bo‘lishi talab etiladi.

1.Test	3.Muammoli vaziyat
1. Jismoniy va psixo-emotsional holatimizni ko‘tarishga yordam beruvchi vitaminni aniqlang a) D b) A c) PP d) E	Ko‘pgina asab tizimida muammosi bor insonlar albatta psixolog uchrashuviga boradi. Psixolog mutaxassis sifatida bemorning barcha muammolarini eshitadi va ma‘lum bir tavsiyalarni beradi. Haftada kamida 4 soat qabuliga kelishini ma‘lum qiladi. Ma‘lum bir vaqtdan keyin mutaxassis bemorida

<p>2. Alitsiklik qator guruhiga kiruvchi vitaminlarni ko`rsating?</p> <p>a) PP, K b) B₁, B₁₂ c) D, A d) C, B₉</p>	<p>yetarli darajadagi o`zgarishni sezmayotganligi sababli uni shifokor ko`rigiga yuboradi. Keyingi psixologik davolash kursi effektli yakunlanadi.</p> <p>Savol: Ushbu kasallikda shifokor qaysi preparatlarni qabul qilishi lozimligini aytgan va unda qanday patologik belgilar mavjud bo`lgan?</p>
<p>2.Simptom.</p> <p>Organizmga D vitamini yetishmasligi natijasida qanday patologik belgilar namoyon bo`ladi?</p> <p>1.Ortiqcha vazn, boshning ko`p terlashi; 2.Ko`p qon yo`qotishga, tromboz paydo bo`lishi; 3.Charchoq kuchayishi, ishtaha yo`qolishi; 4.Ko`p terlash, jinsiy bezlar faoliyati kuchayishi.</p>	<p>4.Amaliy ko`nikma</p> <p>Bitamin D organizm uchun juda kerakli bo`lib, suyak va tishlar mustaxkamlashda, kaltsiyning qonga so`rilishi jarayonida ta`siri bor. Yana bu vitamin ko`krak, yo`g`on ichak va prostata bezi rakining oldini olishi mumkin ekan. Bundan tashqari immun faoliyatni tiklash va mustaxkamlashda ham ahamiyati bor. Vitamin D organizmning gormonlar ishlanishi va kayfiyatni nazorat qiladi.</p>

Topshiriqning test qismida mavzuga doir 2 dona test talabalar uchun taqdim etiladi. Ushbu testlar test tuzish qoidalariga qat'iy amal qilgan holda, qo`shimcha ma'lumotlar hamda tuzatishlar talab qilinmaydigan tartibda tuzilishi lozim bo`ladi. Talabalardan keltirilgan testlarga qisqa vaqtda aniq javob berishlari talab etiladi. Masalan yuqoridagi test uchun berilgan javob quyidagicha: D vitaminiga nafaqat jismoniy, balki psixo-emotsional holatingiz ham bog`liq. Bu Kanadada o`tkazilgan 14 ta tadqiqotda tasdiqlangan. Gap shundaki, bu oziq moddasi zavq va quvonch gormoni-dofamin ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Shuning uchun D vitamini depressiya, kayfiyat o`zgarishi, apatiya va surunkali charchoq sindromining oldini olish uchun terapevtlar tomonidan vaqti-vaqti bilan buyuriladi.

Simptom (belgilar) qismida esa mavzu yoki uning aniq bir rejasi yuzasidan muammoli vaziyatni vujudga keltirgan belgilar (sabablar, vositalar) topshirig`i keltiriladi. Mavzu yoki uning aniq bir rejasi bo`yicha muammo aniq yoziladi va talabalardan ushbu muammoni vujudga keltirgan sabablarni ketma-ket keltirish orqali topshiriqni bajarishni davom ettirish talab qilinadi.



Topshiriqning muammoli vaziyat qismida talabning mavzu yuzasidan nazariy ko'nikmalarini aniqlash maqsadida mavzuga doir muammoning, ya'ni, bo'lib o'tgan voqeaning yoki oqibatning muqobil variantini topish talab etiladi. Bitamin yetishmasligini qanday bilish mumkin?

1. Suyaklar mo'rtligi va mushaklarning zaifligi.
2. Doimiy g'amginlik va depressiya. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, vitamin D tanqisligi bor ayollar ko'prok tushkunlik xolatida bo'ladilar.
3. Tananing o'ta sezgirligi, ya'ni tanadagi sababsiz og'riqlar.
4. Og'iz bo'shligi holatining yomonlashuvi gingivitlar, milklarning ko'p qonashi, tishlarda tosh yig'ilishi xam vitamin tanqisligidan bo'lishi mumkin.
5. Yuqori qon bosimi. Vitamin D yurak faoiyatini va qon aylanishini yaxshilaydi, vitamin yetishmasligi esa qon bosimining oshishiga olib keladi.
6. Uyqusirash. Vitamin yetishmasligi quvvatni kamaytiradi, charchoq va mudroq xolatiga sabab bo'ladi.
7. Kayfiyatning tez o'zgaruvchanligi. Vitamin D serotonin ishlanishiga ta'sir qiladi.
8. Boshning ko'p terlashi.
9. Sportchilarda chidamlilikning kamayishi, quvvat kamayib, mushaklar bo'shashib ketadi.
10. Ortiqcha vazn yig'ilishi.
11. Ichak faoliyatining buzilishi, tadqiqotlar natijasi kolit, glyutenga allergiya, Kron kasalligi bilan og'rikan bemorlarda vitamin D miqdori kamayib ketgan bo'lar ekan.
12. Allergiya xurujlari ham vitamin yetishmasligi sababidan bo'lishi mumkin.

Amaliy ko'nikmada mavzu yoki mavzu rejasida tilga olingan, o'rganilishi lozim bo'lgan qismining bugungi kundagi tarixiy ahamiyatini ko'rsatish talab qilinadi.

Assesment metodi bo'yicha topshiriqni tuzishda o'qituvchi sinov bosqichlari uchun savollar va muammoli vaziyatni metod qonun-qoidalariga qat'iy amal qilgan holda, ya'ni, talabalarga beriladigan savollarni aniq va tushunarli, shuningdek, savollarning javoblarini ham aniq tarzda ifodalashi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad esa talabalar o'rtasida savollar yoki ularning javoblari yuzasidan turli anglashilmovchilikning, oqibatda esa qimmatli vaqtning zoe ketishining oldini olishdir. O'qituvchida ushbu topshiriqning mutlaqo to'g'ri varianti ham shakllantirilgan bo'lmog'i lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Авлиёқулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари. Тошкент, 2001.
2. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori. diss.T, 2007.
3. Толипова Ж.О., Ғофуров А.Т. “Биологиядан янги педагогик технологиялар” Тошкент, 2002 й.